

**OT LEKSEMALARNING KELISHIK KATEGORIYASI
ASOSIDA BIRIKUVCHANLIK XUSUSIYATLARI**

Mamaraximov Sirojiddin Murtazayevich

Guliston davlat universiteti Filologiya fakulteti

O‘zbek tilshunosligi kafedrası katta o‘qituvchisi

e-mail: mamaraximov90@umail.uz

Annotatsiya: Mazkur bo‘limda ot leksemalarning kelishik kategoriyasi asosida yuzaga keladigan birikuvchanlik xususiyatlari o‘rganiladi. Kelishik shakllarining ot leksemalarning boshqa til birliklari bilan sintaktik munosabatga kirishishidagi o‘rni, ularning birikuvchanlik imkoniyatlarini yuzaga chiqaruvchi grammatik omillar tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari ot leksemalarning grammatik birikuvchanligini tizimli tavsiflash, ularning sintaktik imkoniyatlarini belgilash hamda o‘zbek tilida valentlik va birikuvchanlik hodisalarini chuqurroq tadqiq etish uchun nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: ot leksema, kelishik kategoriyasi, kelishik shakllari, birikuvchanlik, grammatik birikuvchanlik, sintaktik munosabat, sintaktik aloqa, valentlik, grammatik-semantik xususiyat, birikish imkoniyati.

Abstract: This section examines the combinability properties of noun lexemes based on the case category. It analyzes the role of case forms in establishing syntactic relations between noun lexemes and other linguistic units, as well as the grammatical factors that determine their combinability potential. The findings of the study provide a theoretical basis for systematically describing the grammatical combinability of noun lexemes, determining their syntactic potential, and conducting further research into the phenomena of valency and combinability in the Uzbek language.

Keywords: noun lexeme, case category, case forms, combinability, grammatical combinability, syntactic relation, syntactic connection, valency, grammatical-semantic properties, combinability potential.

Kelishik kategoriyasi ot yoki otlashgan soʻzning feʼlga, otga yoki boshqa biror soʻzga grammatik aloqasini – gap tuzilishida gap boʻlaklari oʻrtasidagi munosabatlarni anglatadigan grammatik kategoriya boʻlib, maxsus qoʻshimchalar bilan ifodalanadi. Bu qoʻshimchalar soʻzlar oʻrtasidagi biriktiruvchi va birikuvchi munosabatlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Bu kelishik qoʻshimchalari ot yoki otlashgan soʻzning gapdagi sintaktik vazifasini koʻrsatib turishi bilan boshqa grammatik kategoriyalardan ajralib turadi. Shu boisdan kelishik qoʻshimchalarida soʻzlarni bogʻlab turishdagi nisbiy tushuncha valentlik sifatida tadqiq etiladi. Masalan, *Oyqiz otasining dono soʻzlarini qalbiga mahkam joyladi* gapidagi *otasi* soʻzi qaratqich kelishigi qoʻshimchasi *-ning* vositasida *soʻzlarini* bilan, *qalbi* soʻzi *-ga* qoʻshimchasi vositasida *joyladi* feʼli bilan bogʻlangan.

Otlarning xususiy birikuvida kelishik kategoriyasining grammatik jihatdan birikuvchi, yaʼni tobe komponent tarkibida kelishi sintaktik va grammatik shakl valentligi bilan uzviy bogʻliqligi jihatidan alohida ajralib turadi. Aslida, sintaktik valentlik leksema valentligining muhim jihatlaridan biri boʻlib, u biriktiruvchi mavqedagi leksemaning birikuvchi leksemalarni oʻziga biriktirishi uchun ularning maʼlum bir sintaktik shaklda, masalan, kelishik, koʻmakchi, ravishdosh, sifatosh qoʻshimchalari bilan shakllangan holda boʻlishini talab qilishidir. Bunda biriktiruvchi va birikuvchi leksemalarning sintaktik mavqelari grammatik shakl tomonidan ham belgilanadi. Masalan, *xatni yozdi*, *xat yozildi* sintaktik qurilmalaridagi *xatni* va *xat* soʻzlarining grammatik shakli bosh soʻzning grammatik shakli bilan belgilanadi. Sintaktik valentlik semantik valentlik bilan zich bogʻlangan boʻlib, biri oʻzgarsa, ikkinchisi ham oʻzgaradi, biri yoʻqolsa, ikkinchisi ham

bo'lmaydi. Masalan, *yetkaz* leksemasi qaratqich kelishigidagi otni o'ziga tortmaydi (*Baxtiyorning yetkaz tarzida*). Lekin *yetkaz* leksemasi orttirma nisbat shakli *-dir* bilan shakllansa, (*Baxtiyorga*) so'z shakli unga tortila oladi. Bunda *yetkaz* leksemasining sintaktik valentligi o'zgaradi.

Shuni ta'kidlash lozimki, ma'noviy va grammatik valentliklar orasidagi bog'liqlik ular miqdorining doimo teng bo'ladi degan tushunchani bermaydi. Shu boisdan ba'zi o'rinlarda ma'noviy valentlik grammatik valentlikdan ko'p yoki kam bo'lishi matndagi gaplarning tahlilidan kuzatish mumkin. Chunki grammatik shakllar, jumladan, kelishik shakllari ham, leksemaning valentlik imkoniyatini kengaytirishi yoki toraytirishi borasida fiklar ko'plab adabiyotlarda ta'kidlab o'tilgan.

O'zbek tilida kelishiklarning ma'nosi ularning asosiy vazifalariga, qanday ma'noli so'zlarni biriktirayotganiga qarab belgilanadi. Jumladan, leksemalar o'rtasidagi biriktiruvchi va birikuvchanlik chiqish kelishigidagi ot bilan fe'l orasidagi sintaktik aloqani ko'rsatib, harakatning boshlanish yoki chiqish o'rnini bildiradi, ammo bu asosiy vazifadan tashqari, chiqish kelishigi yana bir necha ma'noni ifodalaydi: *Ertalabdan yomg'ir bolaladi* gapida payt ma'nosini; *Suyunganidan gapirolmaydi* gapida sabab ma'nosini; *Oltindan do'stlik qimmat* gapida chog'ishtirish ma'nosini; *Pichoq po'latdan ishlangan* gapida material ma'nosini anglatgani kabi.

Biroq leksema tarkibidagi har qanday kelishik qo'shimchasi ham biriktiruvchi vazifasini bajarib kelmaydi. Chunki so'zlarning birikuvi yoki valentlik imkoniyati tilning ko'plab sathlari bilan aloqador bo'lgani holda til taraqqiyoti tufayli leksemaning semantik, fonetik strukturasida bo'lganidek, so'zning morfemik tarkibida bo'ladigan o'zgarishlarga ham befarq emas. Shu sababali ham jo'nalish, chiqish va o'rin-payt kelishik shakllari so'zlarga qo'shib kelganda turli xil ma'no ottenkalarini ifodalashi mumkin.

Jo‘nalish kelishigi affiksi payt ravishi leksemasi (*erta-ga, indin-ga*) hamda sifat leksemalariga qo‘shilganda (*to‘g‘ri-ga, bekor-ga*) kelishik qo‘shimchasi aniq ajraladi, biroq kelishik qo‘shimchasining vazifasini bajarish doirasi tor. *Olg‘a, zo‘rg‘a, jo‘rttaga* misollarida esa kelishik qo‘shimchasi hozirgi o‘zbek tilida ajralmasligi ilmiy adabiyotlarda asoslab berilgan [1, 137]. Masalan,

JO‘RTTAGA. *rvsh.* Ongli ravishda, atayin, ataylab, qasddan.

Men jo‘rttaga ba’zi gaplarni teskarilikka olib ko‘rsam ham, u [Zaynab] churq etmaydir. A.Qodiriy, “O‘tgan kunlar”. Qudrat jo‘rttaga baqaloq gavdasini qimirlatmay turardi. H.Nazir. “So‘nmas chaqmoqlar”. Ahmad jo‘rttaga sakrab o‘rnidan turdi. F.Musajonov, “Himmat” [2, 118].

Ushbu gaplardagi ravish holini ifodalab keluvchi gap bo‘lagi (jo‘rttaga) tarkibidagi jo‘nalish kelishiga qo‘shimchasi grammatik jihatdan biriktiruvchi vazifasini bajarib kelmagan. Masalan, *jo‘rttaga* (qay holatda) – *olib ko‘rsam ham jo‘rttaga* (qay holatda) – *qimirlatmay turardi, jo‘rttaga* (qay holatda) – *turdi*. Bunday holatlarda jo‘nalish kelishigini olgan so‘z ish-harakatning qay holatda, qay tarzda bajarilishini bildirib kelishik qo‘shimchasi grammatik jihatdan vazifasini bajarmagan. Bu kabi holat boshqa kelishik qo‘shimchalarida ham uchraydi: chiqish kelishigi qo‘shimchasi ravish leksemalariga (hozirdan, tezdan), sifat leksemalariga (yangidan, chindan, yolg‘ondan), ot leksemalariga (tubdan, yoddan), bir sonlariga (birdan) qo‘shilib, bu misollarda kelishik affiksi aniq ajraladi, biroq kelishik qo‘shimchasining vazifasini bajarish doirasi tor hisoblanadi. *To‘satdan, qo‘qqisdan* misollarida esa kelishik qo‘shimchasi hozirgi o‘zbek tilida ajralmasligi ilmiy adabiyotlarda aytib o‘tilgan, misollarida esa kelishik qo‘shimchasi hozirgi o‘zbek tilida ajralmasligini kuzatishimiz mumkin.

Bu kabi holatlar gap jarayonida boshqa kelishik qo'shimchalari va qo'shimchalarda ham kuzatilishi mumkin. O'rin-payt kelishigi qo'shimchasi *tezda* misolida ravish leksemaga, *kunda* misolida ot leksemaga, *boshida* misolida belgi ma'nosi bilan ishlatilgan ot leksemaga qo'shilgan.

Ayrim hollarda ikki ravish leksema ayni bir asosga boshqa-boshqa kelishik ko'rsatkichini qo'shish bilan shakllanadi (*birga, birdan; tezda, tezdan*) hamda ravish leksema yasovchisi sifatida *-(s)iga* ko'rsatkichi III shaxs nisbatlovchisi va jo'nalish kelishigi qo'shimchasidan iborat bo'lib, ravish (*birvarakayiga, birdaniga*) va sifat leksemalariga (*yalpisiga, tikkasiga, sidirg'asiga, baravariga, ko'ndalangiga, rostakamiga, yolg'ondakamiga*) qo'shiladi. Budan tashqari, *qanaqasiga, shunaqasiga* leksemalarida sifat olmoshga; *uzunasiga, qatorasiga* misollarida bu morfema *-asiga* shaklida hamda pirovard fe'l shakliga *-ida* (pirovardida) ko'rsatkichi qo'shilgan: *Ochiqchasiga, o'jarchasiga, harbiychasiga* kabi misollarda ravish yasovchi deb *-chasiga* morfemasi ajratiladi, aslida esa bu morfema tarkibidagi *-cha* qismi – shakl yasovchi, *-si, -ga* qismlari esa – o'zgartiruvchi qo'shimchalar bo'lib, bu ko'rsatkichni ham leksema yasovchi deb bo'lmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o'zbek tili. – T.: Universitet, 2006.
2. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Жилд 2. – Т.: “Ўзбекистон миллий ensiklopediyasi” давлат илмий нашриёти, 2020.
3. Расулов Р. Ўзбек тилидаги ҳолат феллари ва уларнинг облигатор валентликлари. – Т.: Фан, 1989.
4. Миртожиев М. Ўзбек тили семасиологияси. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2010.
5. Murtazayevich, M. S. (2026, June). OT KESIM VA AGENS AKTANTINING LEKSIK-SEMANTIK VALENTLIKDAGI O 'RNI. In *International Conferences* (Vol. 1, No. 1, pp. 95-98).

6. Murtazayevich, M. S. (2026, June). BIRIKUVCHANLIK–
BIRIKTIRUVCHANLIK HODISALARIGA DOIR MULOHAZALAR.
In *International Conferences* (Vol. 1, No. 1, pp. 67-69).